



ILK YOSHDAGI BOLALAR NUTQINING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

¹Maxmudova Madinaxon
Sobirxonovna
²Siddiqova Baxtigul
Kabirjon qizi

¹Maxsus pedagogika kafedrası dotsenti
²Logopediya yo'nalishi magistranti

Annotatsiya

Maqolada ilk yoshdagi bolalar nutqining rivojlanish xususiyatlari, nutq buzilishlarini o'rganish, tushunish uchun bola nutqining normal rivojlanish yo'lini, bu jarayonning o'ziga xos xususiyatlarini, nutqning muvaffaqiyatli shakllanishida katta rol o'ynashi haqidagi fikrlar yozilgan.

Kalit so'zlar Ilk yosh, nutq rivojlanish bosqichlari, nutqiy tajriba, chug'urlash davr, tayyorlov davr, gugulash davri.

Bolaning nutqi kattalar nutqi asosida rivojlanib boradi. Nutqining to'g'ri shakllanishi atrofdegilar nutqiga, nutqiy tajribaga, to'g'ri nutq muhiti va ta'lim-tarbiyaga bog'liq.

Nutq tug'ma qobiliyat emas, balki hayot davomida bolaning jismoniy va aqliy rivojlanishi bilan parallel ravishda shakllanib boradi.

Nutq buzilishlarini o'rganish, tushunish uchun bola nutqining normal rivojlanish yo'lini, bu jarayonning o'ziga xos xususiyatlarini, nutqning muvaffaqiyatli shakllanishida katta rol o'ynovchi sharoitni bilish lozim.

Bundan tashqari bola nutqining rivojlanish davrlarini aniq bilish zarur. Bu esa nutqning rivojlanishi jarayonidagi u yoki bu kamchiliklarni o'z vaqtida bilish va aniqlash uchun kerak bo'ladi. Masalan, 1 yosh-u 4 oylik bola gapirmayapti. Pedagog bolaning normal rivojlanishida birinchi so'zlar qachon paydo bo'lishini bilsa, u holda u bu bolaning normal yoki nonormal rivojlanayotganini hal qila oladi.

Bola nutqining rivojlanish xususiyatlarini bilish, nutq buzilishlariga to'g'ri diagnoz qo'yish uchun ham zarurdir. Ba'zi mutaxassislar uch yoshli bolaning tovush talaffuzidagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun uni logoped qabuliga yuboradilar. Bu to'g'rimi? Yo'q, albatta. Chunki nutqi normal rivojlanayotgan bolaga hali bu yoshda ba'zi bir tovushlarni noto'g'ri talaffuz etish xos bo'ladi. Bu ko'rinish fiziologik dislasiya deb atalib, bu shu yoshdagi bolalarda artikulyatsiya apparatining hali yetarli darajada shakllanmaganligini bildiradi. Nutq kamchiliklarini bartaraf etishda tug'ri va

aniq tarbiyaviy-tuzatish ish rejasini tuzish uchun bola nutqining rivojlanish qonuniyatlarini yana bir karra bilish zarur hisoblanadi.

Mualliflar bola nutqining shakllanish davrlarini turlicha ko'rsatadilar, ularni har xil nomlaydilar va har birining yosh chegaralarini turlicha ifodalaydilar.

G.L. Rozengrad-Pupko bolada nutq rivojlanishini ikki davrga ajratadi:

- 1) tayyorlov davri (2 yoshgacha)
- 2) nutqning mustaqil shakllanish davri. A.N. Leont'ev bola nutqining shakllanishini 4 davrga bo'lib ko'rsatadi;

- 1) tayyorgarlik davri-bir 1yoshgacha;
- 2) bog'chagacha bo'lgan davr- 3 yoshgacha;
- 3) maktabgacha bo'lgan davr-7yoshgacha;
- 4) maktab davri

Bu davrlarning to'liq tavsifi ustida to'xtalib o'tamiz. SHunday qilib, birinchi davr-tayyorgarlik davri (bola tug'ilgandan bir yoshgacha).

Bola tug'ilgandan daqiqadan boshlab ovoz chiqaradi. Bu ovoz qichqiriq va yig'idan iborat bo'ladi. To'g'ri, bu ovoz odam nutqidan uzoq. Lekin ana shu qichqiriq va yig'i nutq apparatining 3 bo'limini (nafas olish, ovoz hosil bo'lish, artikulyatsion) rivojlanishida katta rol o'ynaydi.

Ikki hafta o'tgach, bola gapirayotgan odamning ovozigacha e'tibor bera boshlaydi. Unga gapirayotganda quloq soladi, yig'lashdan to'xtaydi. Bir oyligining oxiriga borib, uni mayin qo'shiq (alla) ostida tinchlantirish mumkin bo'lib qoladi. Keyinchalik u boshini gapirayotgan odam tomonga buradi yoki uni ko'zlari bilan kuzatadi. Tez kundv bola intonatsiyaga e'tibor bera boshlaydi: mayin gapirganda tinchlanadi, keskin intonatsiyaga-yig'laydi.

2 oylik atrofida gu-gulash, 3-oyning boshida bug'inlarning talaffuzi paydo bo'ladi (aga-aga, ta-ta, ba-ba va boshqalar). Bunda tovushlar birikmasi aniq artikulyatsiya qilinmaydi.

Bolalarning chug'urlashi haqida biz ko'pgina lug'atlardan va bolalar nutqining rivojlanishi bilan bog'liq masalalar yoritilgan istalgan adabiyotdan umumiy ma'lumotlarni olishimiz mumkin. Aniq ma'lumotlarga kelsak bizning bu masalada nochorligimiz seziladi. CHug'urlash ietapining rivojlanishi haqidagi aniq va sistemali kuzatilgan ma'lumotlardan tuzilgan yagona maqola yaqini vaqtlargacha G.Goer (Deryagina) va A.E. Goer (1927) tegishli edi. Bunda ham faqat bitta bola kuzatilgan edi. SHuning uchun namoyon bo'lgan faktlarning barchasi chug'urlash etapining rivojlanishidagi umumiy qonuniyatlarga qanchalik ko'p yoki kamroq taalluqligini aniqlash mumkin emas va bu faktlarda shu bolaning individual xususiyatlari ham mujassamlashganini unutmaslik kerak.

CHug'urlash etapi tovushlari masalasida shunisi xarakterliki, bu yerda ularni o'zlashtirish bo'yicha hech qanday ketma-ketlikni o'rnatishning keragi yo'q.

CHug'urlash etapidan nutqga o'tish etapi asosida tovush zahirasida yetishmaydigan tovushlarni o'zlashtirish sodir bo'ladi. CHug'urlashdan nutqga o'tish stadiyasi haqida xuddi shu nuqtai nazarni A. Greguar (1947) ham aytib o'tadi.

Bu nuqtai nazarni dastlab bizga ham to'g'ri bo'lib tuyulgan. (V.I. Bel'styukov, 1969). Biroq ish aslida boshqacha. Ko'pgina mualliflar ajoyib fakti ko'rsatadilar: bola chug'urlash etapidan nutqga o'tish vaqtida u yoki bu tovushlarni qandaydir «unutadi»

va ularni boshqatdan o'zlashtirishni boshlaydi. A.D. Salaxovanning (1972) tadqiqotlari shunga guvohlik beradiki, bu holatda faqat muayyan tovushlarni «unutish» o'rin olmaydi: tilning butun tovush (fonema) sistemasi shakllanishi jarayoni qaytadan sodir bo'ladi.

Bunga bog'liq ravishda tabiiy savol tug'iladi. Nutqning rivojlanishi jarayonida chug'urlash etapining roli qanday? Eng avvalo chug'urlash etapi bolaning artikulyatsion apparatini umumiy mashq qildirishni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari bu etapning ahamiyati shunga olib keladiki, exolaliya va autoexolaliya asosida muayyan motor-akustik aloqalar ishlab chiqiladi. To'g'ri, shuni unutmaslik kerakki, bolalar artikulyatsion apparatining rivojlanishi, xususan chug'urlash etapining rivojlanishi jarayonida motor-akustik aloqalarning hosil bo'lishi, harakatlar koordinatsiyasi va idrokning eng past darajalarida sodir bo'ladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, bolalarda chug'urlash etapining paydo bo'lishida muayyan qonuniyatlar mavjud. Bir differentsial belgilar bo'yicha bir-biridan taqqoslangan tovushlar guruhi chug'urlash etapida bir vaqtning o'zida paydo bo'ladi. (og'izli-burunli, jarangli-jarangsiz). Boshqa differentsial belgilari bo'yicha taqqoslangan tovushlar guruhi (qattiq-yumshoq, portlovchi-shovqinli) turli muddatlarda paydo bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shukhratovich, Makhmudov Khurshid. "Importance of didactic games in speech development of mentally retarded children." *Asian Journal of Multidimensional Research* 11.11 (2022): 20-23.
2. Shuxratovich, Maxmudov Xurshid. "Socio-Psychological Of Children With Speech Impairment Adaptation Features." *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.11 (2022): 243-248.
3. Махмудова, Мадинахон Махмудов Хуршид. "Нутқи тўлиқ ривожланмаган мактабгача ёшдаги болаларни ёзма нутққа тайёргарлигини шакллантириш муаммолари." *Confrencea* 4.04 (2023): 179-186.
4. Махмудова, Мадинахон Махмудов Хуршид. "Мактабгача тарбия ёшидаги болаларни ёзиш ва ўқиш кўникмаларини эгаллашга тайёрлаш." *Confrencea* 4.04 (2023): 187-192.
5. Shukhratovich, Makhmudov Khurshid, and Isodullayeva Iqboloy. "PHYSIOLOGICAL FOUNDATIONS OF SPEECH ACTIVITY." *Open Access Repository* 4.3 (2023): 765-771.
6. Shukhratovich, Makhmudov Khurshid, and Tahirova Mahliyo. "Ways To Increase The Vocabulary Of Mentally Retarded Children Of Preschool Age Based On Plot Role-Playing Games." *International Journal of Early Childhood Special Education* 15.2 (2023).
7. Shukhratovich, Makhmudov Khurshid. "IMPORTANT ASPECTS OF COLLABORATIVE ACTIVITIES IN THE PROCESS OF INCLUSIVE EDUCATION." (2023).
8. Shukhratovich, Makhmudov Khurshid, and Khomidova Shahribonu. "PEDAGOGICAL TASKS OF SPEECH THERAPIST AND PARENT

COOPERATION IN ELIMINATING SPEECH DEFECTS." American Journal of Interdisciplinary Research and Development 16 (2023): 38-41.

9. Sobirkhonovna, Mahmudova Madinaxon. "Professional Training Of Future Speakers In The Period Of Independent Study." Archive of Conferences. Vol. 10. No. 1. 2020.

10. Maxmudova, Madinaxon, and Babayeva Azizabonu. "Ruhiiy Rivojlanishi Sustlashgan Bolalar Lug'atining Psixik Rivojlanish Bilan Bog'liqligi." Conference Zone. 2022.

11. Kodirova, Feruzakhon Usmanovna, S. Z. Matupaeva, and Feruza Rakhimovna Teshaboeva. "Methodical cluster-an innovative mechanism to increase the efficiency of general secondary and inclusive education." (2020).

12. Mahmudova, Madina Sobirkhonovna. "The Role Of Independent Education In The Formation Of Professional Competencies Of Prospective Speech Therapists." Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology 2.10 (2020): 358-363.

13. Feruza, Teshabaeva, Mahmudova Madina, and Yuldasheva Dilbar. "The essence of inclusive education in developed countries." European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol 8.1 (2020).

14. Sobirkhonovna, Mahmudova Madinaxon. "An Innovative Mechanisms to Increase the Effectiveness of Independent Education of Future Defectologists." International Journal on Integrated Education 3.11 (2020): 210-211.

15. Maxmudova, Madinaxon, and Axmedova Vaziraxon. "Tayanch–Harakati A'zolari Falajlangan Bolalar Lug'atini Rivojlantirish Yo'llari." Conference Zone. 2022.

16. Махмудова, Мадинахон Махмудов Хуршид. "Мактабгача тарбия ёшидаги болаларни ёзиш ва ўқиш кўникмаларини эгаллашга тайёрлаш." Confrencea 4.04 (2023): 187-192.

17. Maxmudova, Madinaxon. "Technologies for the development of professional competencies of students of Higher Education." INTERNATIONAL JOUR

18. Maxmudova, M., and O. Zikirova. "Speech therapist and family collaboration in overcoming severe speech deficits." European Scholar Journal 2.10 (2021): 72-73.

19. Sobirxonovna, Maxmudova Madinaxon. "The genealogy of thoughts of the manifestations of ancient antiquity in the study of the speech deficit of dislaliya." Confrencea 3.03 (2023): 17-20.

20. Sobirkhanovna, Makhmudova Madinaxon, and Akhmedova Vazirakhan. "EFFECTIVE ORGANIZATION OF CORRECTIONAL-LOGOPEDIC WORK IN CHILDREN WITH CEREBRAL PALSY." Open Access Repository 4.3 (2023): 134-141.

21. Махмудова, Мадинахон Махмудов Хуршид. "Нутки тўлик ривожланмаган мактабгача ёшдаги болаларни ёзма нутққа тайёргарлигини шакллантириш муаммолари." Confrencea 4.04 (2023): 179-186.

22. Sobirxonovna, Maxmudova Madinaxon. "GENEALOGY OF SCHOLARS AFTER THE 15TH CENTURY IN THE STUDY OF SPEECH DEFİCİT." Confrencea 3.03 (2023): 21-25.

23. Sobirkhonovna, Makhmudova Madinakhan, and Goyipova Nodira. "Theoretical aspects of the development of academic mobility of future speech therapists in dual education." Asian Journal of Multidimensional Research 11.12 (2022): 148-154.

24. Sobirkhonovna, Mahmudova Madina. "THE IMPORTANCE OF THE USE OF PROJECT TECHNOLOGY IN THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCIES OF STUDENTS IN THE PROCESS OF INDEPENDENT LEARNING." EURASIAN EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATION 29 (2020).

25. Sobirkhonovna, Mahmudova Madina. "DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCIES OF FUTURE SPEECH THERAPISTS IN THE PROCESS OF STUDYING INDEPENDENTLY." European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences 8.8 (2020): 155-158.